

**XALQARO IMTIHON TIZIMLARI
BO'YICHA YUQORI BALL
(DARAJA) OLGAN YOSHLARGA
O'QISH VA IMTIHON
TOPSHIRISH XARAJATLARINI
TO'LIQ QOPLAB BERISH
BO'YICHA
USLUBIY QO'LLANMA**

Toshkent – 2025

Xalqaro imtihon tizimlari bo'yicha yuqori ball (daraja) olgan yoshlarga o'qish va imtihon topshirish xarajatlarini to'liq qoplab berish bo'yicha bo'yicha uslubiy qo'llanma. T.: O'zbekiston Respublikasi Adliya vazirligi, 2025-yil. – 24 bet.

Mazkur qo'llanma xalqaro imtihon tizimlari bo'yicha yuqori ball (daraja) olgan yoshlarga o'qish va imtihon topshirish xarajatlarini to'liq qoplab berish tartibini sodda va ravon tilda tushuntirishga qaratilgan.

Ushbu qo'llanma o'ttiz bir yoshga to'lmagan O'zbekiston Respublikasi fuqarolari va O'zbekiston Respublikasida doimiy yashovchi fuqaroligi bo'lmagan yoshlarga hamda keng jamoatchilik uchun mo'ljallangan.

Ushbu uslubiy qo'llanma tavsiyaviy xususiyatga ega.

© O'zbekiston Respublikasi Adliya vazirligi, 2025-yil.

MUNDARIJA

YOSHLARGA XALQARO IMTIHON TIZIMLARI BO'YICHA YUQORI BALL (DARAJA) OLGAN YOSHLARGA O'QISH VA IMTIHON TOPSHIRISH XARAJATLARINI TO'LIQ QOPLAB BERISH BO'YICHA NORMATIV-HUQUQIY HUJJATLAR.....	4
KIRISH	5
UMUMIY QOIDALAR	Ошибка! Закладка не определена.
DAVLAT XIZMATINI KO'RSATISH TARTIBI	10
ILOVALAR	5

Yoshlarga Xalqaro imtihon tizimlari bo'yicha yuqori ball (daraja) olgan yoshlarga o'qish va imtihon topshirish xarajatlarini to'liq qoplab berish bo'yicha normativ-huquqiy hujjatlar

O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2021-yil 3-fevraldagi 6155-son "2017 — 2021-yillarda O'zbekiston Respublikasini rivojlantirishning beshta ustuvor yo'nalishi bo'yicha Harakatlar strategiyasini "Yoshlarni qo'llab-quvvatlash va aholi salomatligini mustahkamlash yili"da amalga oshirishga oid davlat dasturi to'g'risida"gi farmoni	
Vazirlar Mahkamasining 2021-yil 13-apreldagi 209-son "Xalqaro imtihon tizimlari bo'yicha yuqori ball (daraja) to'plagan yoshlarga o'qish va imtihon topshirish xarajatlarini to'liq qoplab berish tartibini joriy etish to'g'risida"gi qarori	
Vazirlar Mahkamasining 2021-yil 13-apreldagi 209-son "O'zbekiston Respublikasi Yoshlar ishlari agentligining Yoshlarga oid davlat siyosatini qo'llab-quvvatlash jamg'armasi mablag'larini shakllantirish va ulardan foydalanish tartibi to'g'risidagi nizomni tasdiqlash haqida"gi qarori	

KIRISH

So'nggi yillarda O'zbekiston Respublikasida yoshlarning bilim va salohiyatini har tomonlama ro'yobga chiqarish, ularni xalqaro miqyosda raqobatbardosh mutaxassislar etib tarbiyalash, xorijiy til va zamonaviy kasb-hunarlarni puxta egallashiga keng sharoit yaratish bo'yicha tizimli ishlar amalga oshirilmoqda. Ayniqsa, yoshlarning **IELTS, TOEFL, CEFR, SAT, GRE, GMAT kabi nufuzli xalqaro imtihon tizimlarida yuqori natijalar ko'rsatishini qo'llab-quvvatlash** davlat siyosatining ustuvor yo'nalishlaridan biri sifatida belgilangan.

Mazkur uslubiy qo'llanma **xalqaro imtihonlardan yuqori ball (daraja) olgan yoshlarning o'qish va imtihon topshirish bilan bog'liq xarajatlarini byudjet mablag'lari hisobidan to'liq qoplab berish** tartibini belgilaydi. Qo'llanma tegishli davlat organlari, ta'lim muassasalari, yoshlar siyosati sohasi vakillari va boshqa manfaatdor tashkilotlar uchun amaliy yo'riqnoma vazifasini bajaradi.

Adliya vazirligi tomonidan ishlab chiqilgan ushbu uslubiy qo'llanma asosiy tushunchalar, xarajatlarni qoplab berish mexanizmlari, ariza topshirish tartibi, saralash mezonlari va moliyalashtirish bo'yicha hujjatlashtirish jarayonlari bosqichma-bosqich yoritilgan hamda **jarayonni shaffof, adolatli va manzilli tashkil etishga, eng iqtidorli yoshlarga keng imkoniyatlar yaratishga** xizmat qiladi.

UMUMIY QOIDALAR

Xalqaro imtihon tizimlari bo'yicha yuqori ball (daraja) olgan yoshlarga o'qish va imtihon topshirish xarajatlarini to'liq qoplab berishda quyidagi **asosiy tushunchalar** qo'llaniladi:



ariza beruvchi – imtihon topshirish paytida o'ttiz bir yoshga to'lmagan O'zbekiston Respublikasi fuqarolari va O'zbekiston Respublikasida doimiy yashovchi fuqaroligi bo'lmagan, o'qish va imtihon topshirish xarajatini kompensatsiya qilishni so'rab belgilangan tartibda murojaat qilgan jismoniy shaxs (o'n olti yoshga to'lmagan shaxs nomidan murojaat qilgan uning qonuniy vakili);



imtihon topshirish xarajati – imtihonni tashkil etish vakolatiga ega xorijiy tashkilotlar tomonidan belgilangan O'zbekiston Respublikasida amal qiluvchi rasmiy to'lov miqdori;



o'qish va imtihon xarajatini qoplab beruvchi – O'zbekiston Respublikasi Yoshlar ishlari agentligi;



imtihon uchun kompensatsiya – imtihon topshirish xarajatini qoplab beruvchi tomonidan ariza beruvchiga qoplab beriladigan, mas’ul vakolatli xorijiy tashkilot tomonidan O‘zbekiston Respublikasi uchun belgilangan imtihon topshirish xarajati summasi (mazkur imtihon uchun kompensatsiya mas’ul vakolatli xorijiy tashkilotlarning O‘zbekiston Respublikasi hududidagi vakolatli vakili tomonidan belgilanadigan imtihon topshirish bilan bog‘liq qo‘shimcha to‘lovlarni o‘z ichiga olmaydi);



o‘qish uchun kompensatsiya – ingliz (IELTS), nemis, fransuz, koreys, xitoy va yapon tillari bo‘yicha kamida S1 va unga tenglashtirilgan darajadagi xalqaro sertifikatni qo‘lga kiritgan yoshlarga o‘quv markazi bilan tuzilgan ikki tomonlama shartnomaga asosan 6 oygacha bo‘lgan o‘qish xarajatlari uchun bazaviy hisoblash miqdorining 3 baravaridan oshmagan miqdorida qoplab beriladigan bir martalik to‘lov;



mas’ul vakolatli tashkilot – imtihonni tashkil etishga vakolatli xorijiy tashkilot yoki uning O‘zbekiston Respublikasi hududidagi vakolatli vakili bo‘lgan yuridik shaxs;



maxsus sertifikat – mas’ul vakolatli tashkilotlar tomonidan beriladigan, maxsus seriya raqamiga ega, imtihon natijasini tasdiqlovchi rasmiy hujjat;



verifikatsiya – ariza beruvchi tomonidan taqdim etilgan maxsus sertifikatning haqiqiylikini mas’ul vakolatli tashkilotning elektron tizimi orqali tekshirish.



Imtihon bo'yicha yuqori ball (daraja) olgan yoshlarga o'qish va imtihon topshirish xarajatlarini to'liq qoplab berishdagi ishtirokchilar:



davlat xizmatlari markazlari ariza beruvchi kelib murojaat etganda uning nomidan so'rovnomani to'ldirib **Yoshlar ishlari agentligiga** yuboradi;



O'zbekiston Respublikasi **Yoshlar ishlari agentligi**:

maxsus sertifikatni verifikatsiyadan o'tkazadi yoki maxsus sertifikatning haqiqiylikini mas'ul vakolatli xorijiy tashkilot orqali tasdiqlatib oladi;

haqiqiylik tasdiqlangan maxsus sertifikat egasi bo'lgan ariza beruvchilarning elektron reyestrini shakllantiradi, ushbu elektron reyestrni va unga muvofiq kompensatsiya mablag'larini **O'zbekiston Respublikasi aksiyadorlik tijorat "Xalq banki"ning** hisobvarag'iga


o'tkazadi va xizmat natijasi bo'yicha **ariza beruvchiga SMS xabar yuboradi**;



Xalq banki filiali ariza beruvchining o'qish yoki imtihon uchun kompensatsiya pulini olishga bo'lgan huquqini tasdiqlagan holda uning xohishiga ko'ra ushbu kompensatsiyaning **naqd yoki naqd pulsiz shaklda** to'lanishini amalga oshiradi.

Ariza beruvchiga SMS xabar yuborish bilan bog'liq xarajatlar O'zbekiston Respublikasi Yoshlar ishlari agentligi mablag'lari va qonunchilik hujjatlari bilan taqiqlanmagan boshqa mablag'lar hisobidan qoplanadi.

Davlat xizmatlari markazlari, Yoshlar ishlari agentligi va Xalq banki o'rtasidagi elektron davlat xizmatlarini ko'rsatish doirasida axborot almashinuvi Elektron hukumatning idoralararo ma'lumotlar uzatish tarmog'i orqali amalga oshiriladi.



DAVLAT XIZMATINI KO'RSATISH TARTIBI TARTIBI

O'qish va imtihon uchun kompensatsiya to'lab berish bo'yicha davlat xizmatini ko'rsatish tartibi mazkur Qo'llanmaning 1-ilovasidagi sxemada aks ettirilgan.



Bunda **ariza beruvchi** istalgan tuman (shahar) davlat xizmatlari markazlariga murojaat qiladi yoki Yagona interaktiv davlat xizmatlari portalida (keyingi o'rinlarda – YIDXP) davlat xizmatidan elektron tarzda foydalanish uchun ro'yxatdan o'tadi.

Ariza beruvchining imtihon uchun va o'qish uchun kompensatsiya so'rab qilgan murojaatiga asosan davlat xizmatlari markazi xodimi ariza beruvchining imtihon uchun va o'qish uchun kompensatsiya so'rab qilgan nomidan, YIDXP orqali murojaat qilinganda esa ariza beruvchi mustaqil ravishda ushbu Qo'llanmaning 2-ilovasiga muvofiq davlat xizmatidan foydalanish uchun so'rovnomani elektron tarzda to'ldiradi va quyidagi hujjatlarni elektron tarzda ilova qiladi:

- ✔ imtihon topshirish xarajati to'langanini tasdiqlovchi to'lov kvitansiyasi (pdf formatda);
- ✔ maxsus sertifikat (pdf formatda);



Ariza beruvchidan ushbu bandda ko'rsatilmagan ma'lumot va hujjatlarni talab qilish qat'iyon taqiqlanadi.

Taqdim etilgan hujjatlardagi ma'lumotlarning xaqqoniyligiga ariza beruvchi mas'ul hisoblanadi.

✔ o'n olti yoshga to'lmagan shaxs nomiga berilgan sertifikat bo'yicha kompensatsiya to'lash haqidagi ariza:

o'n olti yoshga to'lmagan shaxsning ota-onasi tomonidan berilsa – o'n olti yoshga to'lmagan shaxsning tug'ilganlik to'g'risidagi guvohnomasi Yoshlar ishlari agentligi tomonidan integratsiyalashgan ma'lumotlar bazasi orqali tekshiriladi;

o'n olti yoshga to'lmagan hamda ota-onasi bo'lmagan shaxsning qonuniy vakili tomonidan berilsa – uning qonuniy vakilligini tasdiqlovchi hujjat (pdf formatda) ariza beruvchi tomonidan taqdim etiladi;

✔ ariza beruvchi o'qish uchun kompensatsiya berishni so'ragan bo'lsa, ushbu Qo'llanmaga 2-ilovadagi so'rovnomaning IV bo'limidagi ma'lumotlarni to'ldiradi va hujjatlarni yuklaydi. Bunda imtihon uchun kompensatsiya so'rab qilingan murojaatga qo'shimcha tarzda o'qish xarajati uchun kompensatsiya so'rab murojaat qilinishi mumkin bo'lib, alohida tartibda o'qish xarajati uchun kompensatsiya so'rab qilingan murojaatlar ko'rib chiqilmaydi.



Ariza beruvchi o'zi kelib murojaat etganda, davlat xizmatlari markazlari tomonidan so'rovnoma to'ldirilgandan so'ng ariza beruvchi ma'lumotlarning to'g'riligini tekshirib, so'rovnomaning identifikatsiya qilishning tegishli vositalari (*ERI, daktiloskopiya, elektron imzo, Mobil-ID va boshqalar*) bilan tasdiqlaydi.



Ariza beruvchi YIDXP orqali murojaat etgan taqdirda, so'rovnomani ERI bilan tasdiqlash talab etilmaydi.

Davlat xizmatini ko'rsatish bepul amalga oshiriladi.



Ariza beruvchi tomonidan so'rovnomada noto'g'ri ma'lumotlarning ko'rsatilishi davlat xizmati ko'rsatishni rad etish uchun asos hisoblanadi.

Davlat xizmati ko'rsatishni boshqa asoslar bo'yicha **rad etish taqiqlanadi.**

Ariza beruvchi davlat xizmatidan foydalanishdan uni ko'rsatishning har qanday bosqichida bosh tortish huquqiga ega. Ariza beruvchi davlat xizmatidan foydalanishdan bosh tortganda, uning so'rovnomasi ko'rilmadan qoldiriladi.



Ariza beruvchi davlat xizmatlari markaziga kelib murojaat etgan taqdirda, uning so'rovnomasi davlat xizmatlari markazi xodimi tomonidan to'ldirilib, ariza beruvchi tomonidan tasdiqlangandan so'ng **10 daqiqa mobaynida**, YIDXP orqali murojaat etganda, avtomatik tarzda **Yoshlar ishlari agentligiga elektron shaklda** yuboriladi.

KOMPENSATSIYA TO'LAB BERISH

Quyidagi shartlar to'liq bajarilganda, ariza beruvchiga o'qish va imtihon uchun kompensatsiya to'lab beriladi:

1

imtihon uchun kompensatsiya so'ralganda:

imtihonlarning biri yoki bir nechta bo'yicha imtihon topshirish xarajatini kompensatsiya qilish uchun to'planishi lozim bo'lgan yuqori ball (daraja)ning minimal ko'rsatkichi yoki undan yuqori natija qayd etilganda;

maxsus sertifikat berilgan sanadan boshlab 180 kalendar kun o'tmasdan kompensatsiya to'lashni so'rab, ushbu Reglamentda belgilangan tartibda murojaat qilganda;

maxsus sertifikatda ko'rsatilgan imtihon natijasining haqiqiyliги va to'g'riligi Yoshlar ishlari agentligi tomonidan tasdiqlanganda;

2

o'qish uchun kompensatsiya so'ralganda:

ingliz (IELTS), nemis, fransuz, koreys, xitoy va yapon tillari bo'yicha kamida S1 va unga tenglashtirilgan darajadagi xalqaro sertifikat berilgan sanadan boshlab 180 kalendar kun o'tmasdan kompensatsiya to'lashni so'rab murojaat qilganda hamda ushbu sertifikatda ko'rsatilgan imtihon natijasining haqiqiyliги va to'g'riligi Yoshlar ishlari agentligi tomonidan tasdiqlanganda;

o'quvchi va o'quv markazi bilan tuzilgan ikki tomonlama shartnoma ilova qilinganda.

Murojaat qilish jarayonida ariza beruvchi o'qish va imtihon uchun kompensatsiyani olish uchun **o'ziga qulay hududdagi Xalq banki filialini** tanlaydi.



Yoshlar ishlari agentligi ariza beruvchining murojaati YIDXP orqali tushgan paytdan boshlab **15 kalendar kun mobaynida** maxsus sertifikatni verifikatsiyadan o'tkazadi.

Agar maxsus sertifikatning haqiqiyligini **verifikatsiya orqali** aniqlashning **imkoni bo'lmasa**, Yoshlar ishlari agentligi imtihon tashkil etishga mas'ul vakolatli tashkilotga maxsus sertifikatning

haqiqiyligini so'rab so'rov yuboradi. Bunda Yoshlar ishlari agentligi tomonidan yuborilgan so'rovning **elektron shakli** (pdf formatda) idoralararo elektron tizimga joylashtirilganda, maxsus sertifikatning haqiqiyligini tasdiqlatish **muddati 30 kalendar kunga** uzaytiriladi.

Kompensatsiya to'lashning rad qilish tartibi



Davlat xizmati ko'rsatishni rad etish uchun quyidagilar asos bo'ladi:

imtihon uchun kompensatsiya so'ralgan murojaat bo'yicha:

📌 imtihon topshirish xarajati to'langanini tasdiqlovchi to'lov kvitansiyasi (pdf formatda) bo'lmaganda;

📌 imtihon topshirish xarajati to'langanini tasdiqlovchi to'lov kvitansiyasi (pdf formatda) bo'lmaganda;

📌 imtihon topshirish xarajati to'langanini tasdiqlovchi to'lov kvitansiyasi (pdf formatda) bo'lmaganda;

📌 imtihonlarning biri yoki bir nechitasi bo'yicha imtihon topshirish xarajatini kompensatsiya qilish uchun to'planishi lozim bo'lgan yuqori ball (daraja)ning minimal ko'rsatkichi yoki undan yuqori natija qayd etilmaganda;

📌 maxsus sertifikat berilgan sanadan boshlab 180 kalendar kun o'tmasdan kompensatsiya to'lashni so'rab, ushbu belgilangan tartibda murojaat qilmaganda;

📌 maxsus sertifikatda ko'rsatilgan imtihon natijasining haqiqiyliги va to'g'riligi Yoshlar ishlari agentligi tomonidan tasdiqlanmaganda;

o'qish uchun kompensatsiya so'ralgan murojaat bo'yicha:

📌 ariza beruvchi o'qish uchun kompensatsiya berishni so'ragan bo'lsa, ushbu Qo'llanmada berilgan 2-ilovadagi so'rovnoma namunasining IV bo'limidagi ma'lumotlar to'liq to'ldirilmagandi;

📌 ingliz (IELTS), nemis, fransuz, koreys, xitoy va yapon tillari bo'yicha kamida S1 va unga tenglashtirilgan darajadagi xalqaro sertifikat berilgan sanadan boshlab 180 kalendar kun o'tmasdan kompensatsiya to'lashni so'rab murojaat qilganda hamda ushbu sertifikatda ko'rsatilgan imtihon natijasining haqiqiyliги va to'g'riligi Yoshlar ishlari agentligi tomonidan tasdiqlanmaganda;

📌 o'quvchi va o'quv markazi bilan tuzilgan ikki tomonlama shartnoma ilova qilinmaganda.



kompensatsiya qilinishi so'ralayotgan o'qish xarajati muqaddam **"Yoshlar daftari" jamg'armasi hisobidan qoplangan** hollarda, Yoshlar ishlari agentligi tomonidan kompensatsiya **to'lash rad etiladi**.

Yoshlar ishlari agentligi tomonidan mas'ul vakolatli tashkilotga yuborilgan so'rovga 30 kun muddatda javob olinmaganda, shuningdek, maxsus sertifikatning haqiqiy yoki haqiqiy emasligi haqida kechikib javob olinganda, Yoshlar ishlari agentligi bu haqda **SMS yuborish orqali** ariza beruvchini xabardor qiladi.

Bunda maxsus sertifikat haqiqiyliги mas'ul vakolatli tashkilot tomonidan **30 kun muddat o'tib tasdiqlanganda**, ariza beruvchi mazkur belgilangan talablarga **muvofiq takroran murojaat** qilgandan so'ng unga o'qish va imtixon uchun unga kompensatsiya to'lab beriladi.



Muqaddam imtihonlarning bir turi bo'yicha imtixon topshirish xarajati kompensatsiyasini olgan ariza beruvchiga imtihonlarning aynan shu turi bo'yicha takroran topshirilgan imtixon xarajati qoplanmaydi.

Muqaddam imtihonlarning bir turi bo'yicha imtixon topshirish xarajati kompensatsiyasini olgan ariza beruvchi imtihonlarning boshqa turi bo'yicha minimal ko'rsatkich yoki undan yuqori natija qayd etsa, unga ushbu belgilan talablarga muvofiq kompensatsiya to'lab beriladi.

O'n olti yoshga to'lmagan fuqarolarning imtihon topshirish xarajatini kompensatsiya qilishni so'rab ushbu fuqarolarning **qonuniy vakillari** murojaat qilishlari mumkin.



Bunda kompensatsiya ushbu belgilangan talablarga muvofiq o'n olti yoshga to'lmagan fuqarolarning **qonuniy vakillariga** to'lab beriladi.

ILOVALAR

O'qish va imtihon uchun kompensatsiya to'lab berish bo'yicha davlat xizmatini ko'rsatish SXEMASI

Bosqichlar	Subyektlar	Tadbirlar	Bajarish muddati
1-bosqich	Ariza beruvchi	Ariza beruvchi (o'n olti yoshga to'lmagan shaxsning qonuniy vakili tomonidan murojaat qilinadi) istalgan tuman (shahar) Davlat xizmatlari markazlariga murojaat etadi yoki Yagona interaktiv davlat xizmatlari portalida davlat xizmatidan elektron tarzda foydalanish (mustaqil ravishda so'rovnoma shaklini to'ldirish) uchun ro'yxatdan o'tib murojaat qoldiradi.	Maxsus sertifikat berilgan sanadan boshlab 180 kalendar kun mobaynida
2-bosqich	1) Davlat xizmatlari markazi 2) YIDXP	Ariza va unga ilova qilingan hujjatlarni Yoshlar ishlari agentligiga yuboradi.	1. 10 daqiqa ichida 2. Avtomatik tarzda
3-bosqich	Yoshlar ishlari agentligi	1. Maxsus sertifikatni verifikatsiyadan o'tkazadi. 2. Maxsus sertifikatning haqiqiylikini verifikatsiya orqali aniqlash imkoni bo'lmasa, maxsus sertifikatning haqiqiylikini tasdiqlashni so'rab vakolatli xorijiy tashkilotga so'rov yuboradi. 3. Maxsus sertifikatning haqiqiyligi tasdiqlanganda (qancha muddatda tasdiqlanganidan qat'i nazar), maxsus	1. Ma'lumotlar tushganidan so'ng 15 kunda 2. Ma'lumotlar tushganidan so'ng 30 kunda. 3. Maxsus sertifikatning haqiqiyligi tasdiqlangandan

sertifikat egasi bo'lgan ariza beruvchilarning elektron reyestrini shakllantiradi, ushbu elektron reyestrda muvofiq o'qish va imtihon uchun kompensatsiya mablag'larini O'zbekiston Respublikasi aksiyadorlik tijorat "Xalq banki"ning (keyingi o'rinlarda — Xalq banki) hisobvarag'iga moliyalashtiradi va xizmat natijasi bo'yicha ariza beruvchiga SMS xabar yuboradi.

so'ng 15 kun mobaynida.

4. Maxsus sertifikatning haqiqiyliги tasdiqlanmaganda bir ish kuni mobaynida.

4. Maxsus sertifikatning haqiqiyliги tasdiqlanmaganda, bu haqida idoralararo elektron tizimga ma'lumot kiritadi va ariza beruvchiga SMS xabar yuboradi.

4-bosqich

Xalq banki filiali

Ariza beruvchining o'qish va imtihon uchun kompensatsiya pulini olishga bo'lgan huquqini tasdiqlagan holda ushbu kompensatsiya to'lovlarini amalga oshiradi.

Xizmat natijasi bo'yicha ariza beruvchiga SMS xabar yuborilgandan so'ng bankka murojaat qilinganda

**O'qish va imtihon uchun kompensatsiya olish bo'yicha davlat
xizmatlaridan foydalanish uchun
SO'ROVNOMA**

Ariza t/r	Qabul qilish sanasi	Qabul qilgan shaxs	
-	-	-	
I. Ariza beruvchi haqida ma'lumot:			
1.1. F.I.O.:		-	
1.2. Tugilgan sanasi:		kun/oy/yil	
1.3. Jismoniy shaxsning shaxsiy identifikatsiya raqami (JSHSHIR) (mavjud bo'lsa):		-	
1.4. Ijtimoiy holati		Talaba, ishlaydi, ishsiz	
1.5. Telefon raqami:		-	
1.6. Elektron pochta manzili:		-	
1.7. Yashash joyi:		Tuman (shahar), viloyat, respublika	
II. O'n olti yoshga to'lmagan shaxs va uning qonuniy vakili haqidagi ma'lumotlar:			
2.1.1. O'n olti yoshga to'lmagan shaxsning F.I.O.:		-	
2.1.2. Tug'ilgan sanasi:		yil/kun/oy	
2.1.3. Tug'ilganlik haqidagi guvohnoma raqami:			
2.2.1. Bolaning qonuniy vakili F.I.O. Bunda bolaning qonuniy vakili ekanligini tasdiqlovchi hujjat ilova qilinadi (ota-onasi tomonidan topshirilgan arizalar bundan mustasno):		Ilova qilinadi (pdf, png, jpg, jpeg formatda)	
2.2.2. Jismoniy shaxsning shaxsiy identifikatsiya raqami (JSHSHIR):		-	
2.2.3. Telefon raqami:		-	
2.2.4. Elektron pochta manzili:		-	
2.2.5. Yashash joyi:		Tuman (shahar), viloyat, respublika	
III. Imtihon haqidagi ma'lumotlar			
3.1. Imtihon turi	3.2. Imtihon topshirish xarajati summasi	3.3. Sertifikat №	3.4. Qayd etilgan ball/daraja
(tanlanadi)	(imtihon turiga qarab avtomatik hisoblanadi)	-	-

3.5. Sertifikat nusxasi (ilova qilinadi)	3.6. Chek/shartnoma nusxasi (ilova qilinadi)	3.7. Test topshirilgan sana	3.8. Mas'ul vakolatli tashkilot (imtihon oluvchi markaz) kodi/nomi
IV. O'qish haqidagi ma'lumotlar			
4.1. O'qish davri:			yil/kun/oydan — yil/kun/oygacha
4.2. O'quv markazi va arizachi o'rtasida tuzilgan ikki tomonlama shartnoma nusxasi (ilova qilinadi)			Illova qilinadi (pdf, png, jpg, jpeg formatda)

**O'qish va imtihon topshirish xarajati kompensatsiya qilinadigan
xalqaro imtihon tizimlari
RO'YXATI**

T/r	Xalqaro imtihon tizimlarining nomi	Bilish darajasi aniqlanadigan xorijiy til	Umumiy imtihon balli (darajasi)	Imtihon topshirish xarajati kompensatsiya qilinishi uchun to'planishi lozim bo'lgan yuqori ballning (darajaning) minimal ko'rsatkichi	Imtihon topshirish xarajatini kompensatsiya qiluvchi
2021-yil 1-maydan boshlab imtihon topshirish xarajati kompensatsiya qilinadigan xalqaro imtihon tizimlari					
1.	International English Language Testing System (IELTS)	Ingliz tili	1 — 9	7	Yoshlar ishlari agentligi
2.	Test of English as a Foreign Language internet Based Test (TOEFL) iBT	Ingliz tili	0 — 120	94	
3.	Graduate Management Admission Test (GMAT)	-	Verbal/Quantative (200 — 800) Integrated reasoning (1 — 8) Analytical writing (0,5 — 6)	Imtihon natijalari (Verbal/Quantative) bo'yicha nisbat ko'rsatkichi (percentile) 75 va undan yuqori bo'lganda	
4.	Graduate Record Examinations (GRE)	-	Verbal (0 — 170) Quantative (0 — 170) Writing (0,5 — 6)	Imtihon natijalari har biri (Verbal, Quantative, Writing) bo'yicha nisbat ko'rsatkichi (percentile) 75 va undan yuqori bo'lganda	
5.	Scholastic Assessment Test (SAT)	-	400 — 1600	1200	
2022-yil 1-yanvardan boshlab imtihon topshirish xarajati kompensatsiya qilinadigan xalqaro imtihon tizimlari					
6.	Cambridge Assessment English (CAE, CPE, BEC)	Ingliz tili	A1-S1	C1 (CAE advanced, CPE proficiency, BEC higher)	Yoshlar ishlari agentligi

7.	Test DAF	Nemis tili	TDN 3 — 5	TDN 4
8.	Goethe-Zertifikat	Nemis tili	A1-S1	C1
9.	DELFDALF	Fransuz tili	DELFDALF A1-DALF C2	DALF C1
10.	Test de Connaissance du Français (TCF)	Fransuz tili	A1-S1	S1
11.	DELE/SIELE	Ispan tili	A1-S1	C1
12.	CELI/CILS/AIL	Italyan tili	-	CELI 4, CILS Tre, DALI C1
13.	Türkçe Yeterlik Sınavı (TYS)	Türk tili	A1-S1	C1 (71 — 88)
14.	Test of Proficiency in Korean (TOPIK I- II)	Koreys tili	Level 1 — 6	Level 5 (190 — 229)
15.	Japanese- Language Proficiency Test (JLPT)	Yapon tili	N5-N1	N2
16.	Chinese Proficiency Test (NSK)	Xitoy tili	NSK 1 — 6	NSK 5
17.	ALPT/APT/E- TOAFL/ACTFL	Arab tili	A1-S1	C1
18.	Test of Russian as a Foreign Language (TORFL/ TRKI)	Rus tili	A1-S1	TRKI III-IV (C1)

This image shows a full page of blank white paper with horizontal ruling lines. The lines are evenly spaced and run across the width of the page, providing a template for writing or drawing. There are no margins, text, or other markings present.